

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SOBIRXONOV ABDULBOSITXON TOXIRXON O'G'LI

**MAKTAB TABIIY GEOGRAFIYASI DARSLARIDA BADIY IJOD
NAMUNALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (geografiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan - 2023

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasи**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Sobirxonov Abdulbositxon Toxirxon o‘g‘li

Maktab tabiiy geografiyasi darslarida badiiy ijod namunalaridan foydalanish metodikasi.....	3
---	---

Собирхонов Абдулбоситхон Тохирхон угли

Методика использования примеров художественного творчества на школьных уроках физической географии.....	25
---	----

Sobirkhanov Abdulbositkhan Tokhirkhan ugli

Methodology of using examples of artistic creations in school natural geography classes.....	49
--	----

E’lon qilingan ishlар ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....	53
------------------------------	----

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SOBIRXONOV ABDULBOSITXON TOXIRXON O'G'LI

**MAKTAB TABIIY GEOGRAFIYASI DARSLARIDA BADIY IJOD
NAMUNALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (geografiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.1.PhD/Ped1395 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertasiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xodjimatov Alisher Nigmatovich
geografiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Sobirova Mahbuba Yusubdjonovna
pedagogika fanlari doktori, proffesor
Nazarov Maqsud Geldiyorovich
geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertasiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “___” soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01; faks: (+99869) 228-85-02; e-mail: info@namdu.uz.)

Dissertasiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01.)

Dissertasiya avtoreferati 2023-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «___» _____ dagi ____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

T.Fayzullayev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, s.f.d., professor

Sh.K.Xujamberdiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, PhD, dotsent

K.M.Boymirzayev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, g.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Bugungi kunda dunyo ta’lim sohasidagi rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda o‘quv materiallarini kreativlik asosida takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan eng muhim hujjalardan biri – 2030-yilgacha xalqaro ta’lim konsepsiyasida “Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Dunyoning ilg‘or ta’lim muassasalari milliy va xalqaro ta’lim muhitida soha mutaxassislarining ijodiy fikrlash darajasini oshirish, o‘quvchilarga tabiiy geografiya yo‘nalishidagi fanlarni yangi usullar asosida o‘qitishni takomillashtirish, ayniqsa ijodkorlik va kreativlik orqali o‘qitishning an’anaviy va zamonaviy usullaridan kompleks foydalanishga ahamiyat qaratilmoqda.

Jahon miqyosida tabiiy fanlar, jumladan, geografiya o‘qitish jarayonida o‘quvchilarining tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, maktab ta’limtizimida fanlarni integratsiyalab o‘qitish mexanizmlari, pedagogik asoslarini aniqlash hamda uni amaliyatga tatbiq etish, ijodiy yondashuv va zamonaviy usullar asosida loyihalash, amalga oshirish va takomillashtirishning ilmiy asoslangan tizimini yaratish, fanga doir bilimlarni integrativ yondashuv asosida takomillashtirish orqali o‘quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar geografiya darslarida pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, integrativ yondashuvlarni qo’llash asosida o‘quvchilarda har tomonlama bilimlarni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda yoshlar, jumladan, maktab o‘quvchilarining ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, ularning tabiiy-ilmiy bilimlari darajasini oshirish orqali ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, uzlusiz ta’lim tizimi uchun ijodiy fikrlaydigan, mustaqil qarorlar qabul qiladigan va shu asosda ta’lim oluvchilarining barkamol rivojlanishini ta’minlay oladigan pedagogik kadrlar tayyorlashning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. “Yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish. Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minalash, ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta’lim olishini ta’minalash”¹ ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Bu barcha fanlar, jumladan geografiya ta’limida ijodiy metodlar, xususan, badiiy ijod namunalaridan keng foydalanishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-apreldagi PF-5712-sон “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 21-yanvardagi PF-60-sон “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931-sон “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida.PF-60-sон.2022-yil 28-yanvarQonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-sон.

tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi 841-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Mamlakatimizda ta’limni ijodiy tashkil etish va ijodkorlik faoliyati bo‘yicha B.Adizov, Sh.Boltayeva; mustaqil ijodiy fikrlash, ilmiy ijod metodologiyasi va tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha Z.Nishonova, Z.Davronov, R.Sunnatova; maktab tabiiy geografiyasini o‘qitish metodikasini rivojlantirish, ijodkor o‘quvchi shaxsini shakllantirish va rivojlantirish muammolari bo‘yicha H.Xasanov, P.Baratov, A.Muminov, P.Musayev, P.G‘ulomov, T.B.Abdullayeva, M.Nabixonov, M.Jo‘rboev, S.Saitova, A.Altibayev, R.Qurban niyozov, M.Yunusova, U.X.Safarov, F.R.Saydamatov, B.M.Abduraxmonov, F.Xamroyeva, M.Qo‘dosheva, M.Mirakmalov, M.Ergasheva kabi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi mamlakatlari olimlaridan N.I.Leonov, A.V.Fedorov, A.V.Sharikov, V.A.Anuchin, L.Masterman, J.M.Peters, S.Mikenen, S.Frene, V.A.Vozchikov, N.P.Arhangelvskiy, A.A.Polovinkin, K.S.Filipova, V.A.Korinskaya K.Vorsnop, Ye.A.Bondarenko, A.V.Spichkin, A.A.Jurin, Ya.N.Zasurskiy, Ye.L.Vartanova, L.M.Zemlyanova, A.Korochenskiy va boshqalarning ishlarida mediatexnologiyalar asosida o‘qitishning ilmiy-metodik ta’mintonini takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan.

Maktab tabiiy geografiysi darslarida ko‘rgazmali vositalardan foydalanishning ilmiy-metodik ahamiyati bo‘yicha xorijlik qator metodist geograf olimlar: V.G.Erdeli, U.Carlsson, Jak Gonnet, Murray Turoff, W.Potter, K.Domaille, Starr Rohanne Hiltz, A.Silverblatt va boshqalar tadqiqotlarolib borgan.

Muammoga oid adabiyotlar tahlili ko‘rsatdiki, geografiya fani materialini o‘quvchilarga badiiy ijod namunalaridan foydalanish orqali tushuntirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmagan, shuningdek, o‘quvchilarni har tomonlama aqliy rivojlantirish, ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali, sifatli va maqsadli ravishda aniq mavzuga asoslangan holda tashkil etish, o‘quvchilarda geografiya faniga bo‘lgan muhabbatni oshirish, vatanparvarlik g‘oyalarini keng targ‘ib etish, tabiiy geografiya hamda adabiyot fanining mazmunini takomillashtirish masalalariga oid keng ko‘lamli ta’lim vositalari va metodlaridan foydalanish, o‘quvchilarga geografik mavzularni tushunturishda fanlararo integratsiya,

jumladan, adabiyot va geografiya fanining o‘zaro integratsiyasi asosida bilimlarberish, undan alohida usul sifatida foydalanib, o‘qitishni tashkil etish masalalari kam o‘rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasи bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi “Ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishning tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillarini tadqiq qilishning mintaqaviy xususiyatlari” mavzusida olib borilayotgan kompleks ilmiy ishlar doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi maktab tabiiy geografiya darslarida badiiy ijod namunalaridan foydalanish asosida o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maktab “Tabiiy geografiya” o‘quv fani mavzulariga oid badiiy ijod manbalarini to‘plash, ularni o‘rganish, tahlil qilish va dars jarayonlarida qo‘llash va to‘plangan ma’lumotlarni geografik jihatdan muayyan tizimga solish, darslar jarayonida undan samarali foydalanish yo‘llarini aniqlash;

maktab tabiiy geografiya darslarini o‘qitilish jarayonlarini o‘rganish, yangi metoddan foydalanish imkoniyatini oolib berish, asoslash;

maktabda tabiiy geografiyani o‘qitish jarayonini takomillashtirishga ta’sir etuvchi omillarni badiiy ijod namunalarining xususiyatiga ko‘ra aniqlashtirish

badiiy ijod namunalaridan foydalangan holda maktab tabiiy geografiya darslarini tashkil qilish hamda uning samaradorlik darajasini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida maktab tabiiy geografiya darslarida badiiy ijod namunalaridan foydalanib, darslarni tashkil etish jarayoni tanlangan bo‘lib, tajriba-sinovga 362 nafar respondent: Andijon, Buxoro, Namangan, Toshkent viloyatlaridagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini maktab tabiiy geografiya darslarini o‘qitishda badiiy ijod namunalaridan foydalanishni takomillashtirish mazmuni, metodlari, shakl va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda muammoga oid manbalarni qiyosiy o‘rganish va tahlil, pedagogik kuzatish, diagnostika (anketa, suhbat, so‘rov), pedagogik tajriba-sinov, qiyosiy tahlil, elektron botdan foydalanish, matematik-statistik tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktab tabiiy geografiyasi darslarida o‘quvchilar umummadaniy kompetentligini shakllantirish modeli badiiy ijod namunalaridan foydalishning pedagogik bosqichlarini progressiv ko‘rsatkichli metodlarga sinergetik optimallashtirish jarayoni o‘qitishning reproduktiv, evristik va muammoli ta’lim komponentlariga uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

umumta’lim maktablarida geografiya fanini o‘qitish jarayonida badiiy ijod namunalaridan foydalanish metodikasining o‘quvchilarda mustaqil bilish faolligini oshirishda variativlik va individuallikni ta’minlashga xizmat qiladigan

evrologik layoqatlar bilan qayta aloqaga kirishuv darjasini davriy monitoring natijalari barqarorligini ta'minlash kontekstida asoslangan;

o'quvchilarga geografiya fanini o'rgatishning didaktik asoslari badiiy maydonda geografik bilim va tasavvurlar ifodalanishini vizual anglashga yo'naltirilgan badiiy ijod namunalaridan foydalanish kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari hamda integrativ o'quv muhitini ta'lim jarayonida tizimli qo'llash orqali aniqlashtirilgan;

geografiya fanini o'qitishda geografiya+toponimika+etnoekologiya uzviyligini ta'minlashda badiiy ijod namunalaridan foydalangan holda o'quvchilarda geobadiiy axborotlar ko'lmini oshirishning axborot-metodik modelining funksional xususiyatlari fanlararo aloqadorlik tamoyillarini qo'llash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maktab tabiiy geografiya darslarida ta'lim vositalari majmuasidan foydalanish, o'quvchilarning geografik bilim darjasini hamda fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishning yangi amaliy metodi ishlab chiqilgan;

"Tabiiy geografiya" kursida mavzularni yoritishda badiiy metoddan foydalanish" maktab tabiiy geografiya darslarida badiiy ijod namunalaridan foydalanish jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanish asosida o'quvchilarning geografik mavzularni har tomonlama chuqur o'zlashtirishiga imkon beradigan o'quv-uslubiy qo'llanma nashr etilgan, ko'rsatmali materiallar, mavzularga moslashtirilgan badiiy ijod namunalari ishlab chiqilgan;

maktab o'quvchilarining geografik bilim saviyasi, o'zlashtirishining sifat ko'rsatkichlari, aqliy qobiliyatini rivojlantirish, kitobga bo'lgan mehri, madaniyati va ma'naviyatini yuksaltirish, bu qobiliatlarni rivojlantirishda tabiiy geografiya ta'limi vositalaridan foydalanish, adabiyotlar bilan uzviy aloqadorligini mustahkamlash hamda uni amaliyotga tatbiq etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

badiiy ijod namunalaridan foydalanish qoidalari ishlab chiqilgan, shuningdek, elektron @Geografiya_Abdulbosit_bot yaratilib,maktab tabiiy geografiya dars jarayonlarida foydalanish natijasida o'quvchilarning fanni o'zlashtirish samaradorligi ortgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi yondashuvlar va ular doirasida foydalanilgan nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, tadqiqot ishida qo'llangan nazariy va amaliy metodlar, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslangani, tajriba-sinov ishtirokchilarini tanlashning xolisligi, ishga tegishli bo'lgan ilmiy-metodik asoslangan maqolalar, o'quv-uslubiy qo'llanma chop etilgani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingen natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati maktab o'quvchilarining geografik bilim saviyasini oshirish, badiiy adabiyotga hamda kitobga bo'lgan do'stona munosabatini rivojlanish, ularning keng dunyoqarashini shakllantirish,o'qituvchi

hamda o‘quvchi o‘zaro munosabatlarini yanada yaxshilashga xizmat qiladigan tabiiy geografiya darslarining mohiyati, tuzilmaviy tarkibiy qismlari va ularni shakllantirishning tashkiliy-pedagogik modeli ishlab chiqilgani, o‘quvchilarining geografik nutqiy bilimi va qobilyatlari shakllanganlik mezonlari, ularning ko‘rsatkichlari va darajalari, shuningdek, maktab o‘quvchilarining ijodiy faoliik, yangicha fikrlash, falsafiy qobilyatlarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlangani, o‘quvchilarining bilim darajasini an’anaviy va zamonaviy ta’lim berish yo‘llari, vositalarining o‘zaro uzviy aloqadorligini ta’minlash asosida takomillashtirilgani hamda dars jarayonidagi o‘qituvchining pedagogik mahoratini yanada yuksaltirilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan va ilmiy asoslangan tavsiyalar maktab tabiiy geografiya ta’limi jarayonida badiiy ijod namunalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarini har tomonlama rivojlantirish, maktablarda faoliyat olib boradigan geografiya fani o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish, ularning metodik mahoratini oshish, ijtimoiy muhitni yanada yaxshilash, maktab tabiiy geografiyasi bo‘yicha o‘quv rejalar, dasturlari, bosma va elektron darsliklar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar va shu kabi geoaxborot vositalarining metodik majmuuni takomillashtirish, maktab tabiiy geografiya ta’limi nazariyasi va o‘qitish metodikasi mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maktab tabiiy geografiyasi darslarida badiiy ijod namunalaridan foydalanish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

maktab tabiiy geografiyasi darslarida o‘quvchilar umummadaniy kompetentligini shakllantirish modeli badiiy ijod namunalaridan foydalanishning pedagogik bosqichlarini progressiv ko‘rsatkichli metodlarga sinergetik optimallashtirish jarayoni o‘qitishning reproduktiv, evristik va muammoli ta’lim komponentlariga uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirishga doir takliflar asosida 5-6-7-sinflarning “Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi”, “Materiklar va okeanlar geografiyasi”, “O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy gerografiyasi” fanlarini dars o‘tish jarayonlarini takomillashtirishga doir takliflari asosida 5-6-7-sinflarning “Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi”, “Materiklar va okeanlar geografiyasi”, “O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy gerografiyasi” fanlarini dars mashg‘ulotlarini takomillashtirish va tahlil sifatini oshirishga doir takliflardan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika Ta’lim markazining 2023-yil 14-fevraldaggi 01/11-01/1-79-son ma’lumotnomasi). Natijada tabiiy geografiya darslarining samaradorligini har tomonlama oshirishga xizmat qilgan;

umumta’lim maktablarida geografiya fanini o‘qitish jarayonida badiiy ijod namunalaridan foydalanish metodikasining o‘quvchilarda mustaqil bilish faolligini oshirishda variativlik va individuallikni ta’minlashga xizmat qiladigan evrologik layoqatlar bilan qayta aloqaga kirishuv darjasini davriy monitoring natijalari barqarorligini ta’minlash kontekstida asoslangan va geografiya fanini

o‘rgatishning didaktik asoslari badiiy maydonda geografik bilim va tasavvurlar ifodalanishini vizual anglashga yo‘naltirilgan badiiy ijod namunalaridan foydalinish kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari hamda integrativ o‘quv muhitini ta’lim jarayonida tizimli qo‘llash orqali aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalaridan geografiya fani o‘qituvchilarining ta’lim amaliyotiga tatbiq etilgan hamda tabiiy fanlar metodikasi bo‘limlarini tashkiliy tuzilmasi va o‘quv uslubiy ta’mintoni takomillashtirish asosida ta’lim sifatini oshirishga imkon yaratdi (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika Ta’lim markazining 2023-yil 14-fevraldaggi 01/11-01/1-79-son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘qituvchilarining pedagogik mahorati o‘sishi, shuningdek, maktab o‘quvchilarida tabiiy geografik bilim va dunyoqarashni shakllantirishda badiiy ijod namunalaridan foydalishning metodik tizimi va dars o‘tish jarayoni takomillashtirishga xizmat qilgan;

geografiya fanini o‘qitishda geografiya+toponimika+etnoekologiya uzviyigini ta’minlashda badiiy ijod namunalaridan foydalangan holda o‘quvchilarda geobadiiy axborotlar ko‘lamini oshirishning axborot-metodik modelining funksional xususiyatlari fanlararo aloqadorlik tamoyillarini qo‘llash asosida takomillashtirishga oid amaliy takliflaridan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturning VII yo‘nalishida belgilangan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimini takomillashtirish, jumladan ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas’uliyatni oshirish” 31-bandи “Mamlakatda yoshlar ma’naviy tarbiyasini tizimli tashlik etishga qaratilgan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi” asosida barcha tizimlarda belgilangan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni uslubiy ta’minlash”da foydalilanilgan (Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiyma’naviy tadqiqoqtalar instituti 2023-yil 16-martdagи 101-son ma’lumotnomasi). Natijada, ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar mamlakatimizda yoshlarni kitobxonlikka keng jalb qilish, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf kabi adiblarning asar va she’rlarini, uning mazmun-mohiyati hamda xususiyatlarini tahlil qilish va ahamiyatini ilmiy asoslashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 13 ta ilmiy-metodik ish, jumladan 1 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda, 4 ta maqola, shundan 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Disertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot ishi kirish, 3 ta bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 135 betni, umumiy hajmi esa 152 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqot ishining dolzarbliji va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning

maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyatga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma’lumotlar bayon etilgan.

“Maktab tabiiy geografiya darslarini o‘qitishda badiiy ijod namunalaridan foydalanishning mazmun-mohiyati va nazariy asoslari” deb nomlangan birinchi bobda maktablarda geografiya ta’limi, ushbu jarayonda tabiiy geografiyaning o‘rni, maktab tabiiy geografiyasining muhim jihatlari hamda maktab fanlararo integratsiyasi bo‘yicha ma’lumotlar, maktab tabiiy geografiya darslarini o‘qitishda badiiy ijod namunalaridan foydalanishning mazmuni, mohiyati va nazariy asoslari tahlil qilingan.

Geografiya fanining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblangan tabiiy geografiya joy tabiatni xilma-xil ekani sabablarni tushuntiradi. Tabiiy geografiya umumta’lim maktablarida hamda oliv ta’lim muassasalarida o‘z sohasi va yo‘nalishlari doirasida o‘qitiladi. Maktab ta’lim muassasalari moddiy bazasi qanchalik mustahkamlanmasin, dasturlari qanchalik takomillashtirilmasin, unda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarining kasbiy bilimi, ko‘nikma va malakalari, pedagogik mahorati, intelektual salohiyati va o‘quvchilarining faolligiga bog‘liq ravishda ta’lim berishning yangi pedagogik texnologiyalari hamda metodlari, yangicha usullarini ishlab chiqish va ularni amaliyatga joriy etish talab qilinadi. Bunda esa albatta yangicha ta’lim berish, dars jarayonlarida aynan badiiy ijod namunalaridan foydalanib mavzularni yoritish muhim ahamiyatga egadir.

Tabiiy geografiya fanining maktabda o‘qitilishi o‘quvchilarining kelajakda egallaydigan kasbiy faoliyatidan qat’i nazar to‘plangan bilimlar muhim, bunda ta’lim jarayonida geografiya va adabiyot fanlarining integratsiyasi ta’limning mazmun-mohiyatini ochib beradi. Aynan tabiiy geografiya darslarida badiiy ijod namunalaridan foydalanib dars o‘tish jarayonlaridagi imkoniyatlar katta. Shubhasiz, bu dars samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarining puxta bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishiga yordam beradi. Ular eng yangi ma’lumotlar bilan tanishadi. Biroq ko‘p hollarda kitobdan uzoqlashadi, o‘zini unga nisbatan passiv tutadi. Shu boisdan tabiiy geografiya darslarida qo‘srimcha materiallar orqali ularni kitob bilan har tomonlama oshno qilish ham katta ahamiyatga ega. Negaki, ularning mustaqil fikrlashlari, nutq raxonligi, xotiraning yanada kuchayishi bevosita kitob bilan bog‘liqdir. Shuningdek, bugungi ta’lim jarayonida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Maktablardagi eng katta muammo –o‘qitish metodikasi eskirgani”².

Nafaqat adabiyot fanida, balki, ilmiy-ommabop sohalarda ishlatiladigan muhim jumladan bir bu – ijod so‘zidir. **Ijod** – insonning yangi moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste’dodi namoyon bo‘ladi. Ijodni shartli ravishda 2 ga: ilmiy ijod va badiiy ijodga³ bo‘lish mumkin.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 5-apreldagi videosellektoridagi nutqi

³Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, биринчижилд, –Тошкент, 2000. 586

Ilmiy ijod tabiat va jamiyat hayotining obyektiv qonuniyatlarini aks ettiradi. **Badiiy ijod** ma’naviy hayot muammolariga san’atkorning subyektiv, o‘ziga xos qarashlari, his-tuyg‘ularini aks ettiradi. Badiiy ijodda hayotning turfa ranglari hamda voqealari orasidan ibratli va ijtimoiy ahamiyatli bo‘lganlari tanlab olinadi va umumlashtiriladi.

Maktab tabiiy geografiya darslarida badiiy ijod namunalaridan foydalanib, darslarni tashkil etish bugungi kunning eng muhim talabidir. Sababi –badiiyijod usuli, kreativlik asosida o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga dars jarayonlarida ularning qobilyatlarini shakllanishiga turtki beradi, o‘quvchilarni dars jarayoni davomida ilhomlantirish, ularni qoyil qoldirish mushkul, buni haqiqiy pedagog juda yaxshi his qila oladi. O‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilarning badiiy, estetik, mantiqiy, jismoniy va ma’naviy rivojlanishiga alohida e’tibor berishi kerak. Buni davlat rahbaring kitobxonlikka alohida e’tibor berayotgani yorqin tasdiqlaydi.

Zamonaviy ta’lim berish metodlarini keng miqyosda qo‘llash hamda dars jarayonlarini samaradorlik ko‘rsatkichini yaxshilash, tabiiy geografiya fanini o‘zlashtirish, bugungi kun o‘quvchilari mavzular mazmuniga mos bo‘lgan badiiy adabiyot materiallarini ham o‘zlashtirishi, geografik bilim darajasini oshirishi, aqliy va nutqiy qobilyatlarini yanada takomillashtirishi, faqatgina bir turdagи adabiyot bilan emas, balki boshqa turdagи geografik darsliklar, badiiy adabiyotlar va kitoblar bilan ishlash ko‘nikmalarini hosil qilishi talab etiladi.

Proffessor R.Niyozmetova ta’kidlaganidek, ta’limda bir qancha integratsiyalashuv jarayonlarini ko‘rish mumkin, shulardan eng muhimlaridan biri **mavzulararo integratsiya** hisoblanadi. Demak, bu jarayonda tabiiy geografiya darslari mavzularida ham adabiyot faniga tegishli bo‘lgan badiiy ijod namunalarini mavzulardan kelib chiqib, qo‘llash alohida ahamiyat kasb etadi. Bu kabi integratsiyalashgan fanlararo hamkorlik jahoning ko‘plab mamlakatlarida amaliy tajribadan o‘tgan hamda asosiy fanlar tarmog‘i sifatida ta’lim jarayonida o‘qitib kelinadi.

Yuqoridaq dalillar asosida aytish mumkinki, maktab tabiiy geografiya darslarini badiiy ijod namunalaridan foydalanib tashkil etish, bugungi zamonning, qolaversa, o‘quvchilarning ham talabidir. Sababi, o‘quvchilarni dars jarayonlari davomida ilhomlantirish, ularni qoyil qoldirish mushkul, buni haqiqiy pedagog juda yaxshi his qila oladi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘z ustida doimo muttasil ishlashi, innovatsion, noan’anaviy, interaktiv dars usullarini muntazam o‘qib va o‘rganib borishi hamda o‘quv-tarbiya jarayoniga tatbiq qila olishi zarur. O‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilarning badiiy, estetik, mantiqiy, jismoniy va ma’naviy rivojlanishiga alohida e’tibor berishi kerak. Bir dars davomida o‘qituvchi ham o‘quvchilarni har tomonlama ko‘rishi, ularni tinglashi, mavzuni to‘liq tushunarli gapirishi, uni mushohada qilishi va yozishi ham kerak.

Maktab tabiiy geografiya darslarida badiiy ijod namunalaridan foydalanishning e’tiborga molik jihatlari va qoidalari mavjud. Jumladan; tabiiy geografiya darslari davomida mavzularga epigraf, xulosa chiqarish yoki

mavzuga mos bo‘lgan ijod namunalaridan foydalanish mumkin. Biz ushbu jarayonlardagi eng muhim qoidalarni ishlab chiqdik (1-jadval).

1-jadval

Maktab tabiiy geografiya darslarida badiiy ijod namunalaridan foydalanish ning eng muhim qoidalari

№	Eng muhim qoidalar	Qoidalarga izoh va sharhlar
1-qoida	tabiiy geografiya darslarida uchun tanlangan badiiy ijod namunalari aynan shu mavzuga tegishli bo‘lishi	aynan shu mavzuga tegishli badiiy ijoddan foydalanilmasa chalkash holatlar yuzaga keladi.
2-qoida	badiiy ijod namunalaridagi ma’lumotning qiziqarli bo‘lishi	qiziqarli usulgina darsdagi faollikni yanada oshiradi.
3-qoida	o‘quvchilarning bilim saviyasi, yosh va psixik-fiziologik holatiga mos kelishi	tanlangan badiiy ijod o‘quvchilarni tushunishlariga oson hamda yosh psixofiziologik holatiga mos bo‘lsamaqsadga tezroq erishiladi.
4-qoida	tanlangan material ta’lim-tarbiya talablariga javob berishi, dasturiy reja talablariga mos kelishi	keltirilgan badiiy ijoddagi axloqiy, tarbiyaviy talablar o‘quvchilarni ma’naviyatini oshirishga xizmat qiladi
5-qoida	tanlangan qo‘sishimcha materialning badiiy saviyasi yuqori bo‘lishi	badiiy ijoddagi ma’lumotlar-ning qofiyasi, mazmuni va o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.
6-qoida	materialning voqeiyligi hamda mazmuni o‘quvchilarni o‘ziga jalb qilishi	o‘quvchilarni o‘ziga jalb qilgan badiiy ijod darsdan foydalanish uchun asos bo‘ladi.
7-qoida	tanlangan badiiy ijod namunalarini geografiya darslarining samaradorligini oshishiga xizmat qilishi	Darslardagi samaradorlik belgilangan vazifalarni bajarilganligining isboti hisoblanadi.
8-qoida	tanlangan badiiy asardan parcha yoki matnning ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi	keltirilgan misoldagi geografik ma’lumotlar mavzuga mos, hayotiy va to‘g‘ri bo‘lishi muhimdir.
9-qoida	qisqa mazmundagi badiiy ijod namunalarida mavzuga oid keng qamrovli ma’lumotlar jamlanganligi	badiiy ijod usulidagi materiallar mazmunidan ham o‘quvchilar ko‘p narsalarni tahlil qilib olishlari kerak.
10-qoida	tanlangan matn, parcha yoki she’rning ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi	ilmiy asoslangan ma’lumotlardangina foydalanish kerak.
11-qoida	o‘qituvchi o‘tiladigan dars mazmunini ochib berishga xizmat qiladigan va ta’lim-tarbiya tamoyiliga mos keladigan parchalarni tanlay ola bilishi	darslar jarayonida faqat o‘quvchi emas, balki pedagog ham materialni mavzuga mos tarzda tanlashi, uni tushunarli tilda o‘quvchilarga yetkazishi kerak. Bu har ikki tomon uchun foydalidir.

12-qoida	badiiy parchalardagi jumla, ibora va so‘zlar o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lishi	o‘quvchilar badiiy ijoddan keltirilgan jumlanı yodlashga, sharhlashtirishga va tahlil qilishda muammolarga duchor bo‘lmasligi lozim.
13-qoida	mavzuga mos tarzdagi badiiy ijod namunasi o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga tushunarli, ifodali tazrda yetkazilishi	keltirilgan badiiy ijod namunasi o‘quvchilarga qancha tushunarli ohangda, ifodali tazrda yetkazilsa, ularni mavzuga tegishli bilimlari shuncha ko‘p mustahkamlanib boradi
14-qoida	badiiy ijod parchalaridagi jumla, ibora va so‘zlar qiyin yoki eskirgan bo‘lmasligi, o‘quvchilar uchun yangilik bo‘lishi	parchalaridagi jumla, ibora va so‘zlar qiyin yoki eskirgan bo‘lsa, o‘quvchilar uchun yangilik bo‘lmasa bilimlarni oshishi murakkablashadi, shu boisdan ushbu qoidaga amal qilish muhim hisoblanadi


Adabiyot va tabiiy geografiya integratsiyasi orqali ta’lim tizimida yangicha metod va rivojlanishning tezkor bosqichiga o‘tiladi. Hamkorlikda amalgalashishda oshirilgan islohotlar isbot va dalillarning o‘zaro aloqadorligi natijasida ilm-fanda keltirilayotgan misollar reallikda o‘z tasdig‘ini shuncha tez topadi hamda bu dars o‘tish jarayonlarida kitobxonni har tomonlama o‘ziga doimiy ravishda jalb qiladi.

Adabiyot va tabiiy geografiya fanining mavzulararo integratsiyasi natijasida bir qator muammolarni hal qilishga hamda bugungi zamon talabiga mos keladi. Jumladan; 1) geografik mavzular, real hayotdagi vokelik ularda taassurot uyg‘otadi; 2) nazariy ma’lumotlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash va o‘quvchilarni faol mustaqil bilish jarayoniga jalb etish imkonini beradi; 3) o‘quvchilarda kasbiy va tayanch layoqatlarini shakllantirish va rivojlantirishni ta’minlaydi; 4) oldingi, hozirgi o‘tilayotgan va keyingi mavzular bog‘liqligini ta’minlaydi; 5) o‘quvchilarning eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi; 6) sinfdagi namunali o‘zlashtiradigan, faol va o‘zlashtirishga qiynalayotgan, passiv o‘quvchilar o‘rtasidagi muvozanattni tiklab, har ikkisini ham faol holatga keltiradi; 7) o‘quvchilarning geografik bilimlari oshishi, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, kitobxonlikka keng jalb qilishga asos bo‘ladi.

Dissertatsiyaning “**Maktab tabiiy geografiya darslarida badiiy ijod namunalaridan foydalanish va uning metodik ta’minoti**” deb nomlangan ikkinchi bobida maktab tabiiy geografiya darslarida badiiy ijod namunasini bayon qilish yo‘llari, uning o‘quvchilar ongiga ta’siri va undan foydalanish texnologiyalari, O‘zbekiston xalq shoirlari Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va Muhammad Yusufning she’rlaridagi maktab tabiiy geografiyasibidan bog‘liq ta’limiy yondashuvlar va uning metodik ahamiyati, maktab tabiiy geografiya darslarida badiiy ijod namunalaridan foydalanish bo‘yicha namunalar (mavzular misolida) va undan foydalanish metodikasi bayon qilingan.

Maktab tabiiy geografiya darslarida badiiy ijod namunalaridan foydalanish davomida mavzularni tabiiy xarita yoki atlas bilan ham bevosita bog‘lab, joy manzilini xaritadan ko‘rsatib ketish ham mumkin. Natijada, mavzuning mazmuni o‘quvchilar uchun yanada tushunarli bo‘ladi. Zamonaliv ta’lim

jarayonida barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va uning mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. Ushbu ta’lim pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat hamkorlik va tanlash erkinligiga asoslanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining bir nechta turi farqlanadi (1-rasm).



1-rasm. Badiiy ijod namunalaridan foydalanishning o'quvchilarongigata'siri

Badiiy adabiyotlardan tanlab olingan mavzuga tegishli badiiy ijod namunalari bir yoki bir nechta qismdan iborat bo‘lishi mumkin. Biroq ular mantiqan bir-biri bilan bog‘lanishi lozim. Shubhasiz, har qanday keltirilgan badiiy parchaning saviyasi, vatanparvarlik g‘oyasi, ta’limiy-tarbiyaviy maqsadi, estetikasi, ta’sir qilish doirasi ancha kuchli bo‘lishi kerak. Shundagina o‘qituvchi geografiya darslarida qo‘srimcha badiiy adabiyotlardan foydalanib dars o‘tsagina ko‘zlangan maqsadga erisha oladi. Badiiy parchada geografik ma’lumotlar, tabiat elementlari orasidagi uzviy bog‘lanishlar ham aks etishi kerak. Lekin tanlangan materialning ayrim qismlari o‘rnini muallif ko‘zda tutgan mazmun-g‘oyaga zarar yetkazmasdan almashtirish ham mumkin. Badiiy matndan uning mazmuni dars mavzusining xarakteriga qarab darsning turli qismida dars boshida, mavzuni bayon qilishda yoki dars oxirida foydalanish mumkin. Uni yangi mavzuni boshlashdan oldin ham o‘qib berish suhbat muqaddimasi vazifasini o‘tab, o‘quvchilar e’tiborini kuchaytiradi va yangi mavzuga jalb qiladi. O‘quvchilarning xotirasini mustahkamlaydi, zehn va idrokini uyg‘otadi.



2-rasm. Maktab tabiiy geografiyasi darslarida badiiy ijod namunalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirilgan modeli

Maktab tabiiy geografiya darslarida badiiy ijod namunalaridan foydalanish orqali mavzularni bayon qilishning o‘ziga mos yo‘llari ham mavjud. Geografiya fani darslarida o‘qituvchi ilmiy-ommabop va badiiy adabiyotlardan geografik jihatdan xarakterli bo‘lgan parchalarnigina tanlab oladi. Ayrim hollarda kichikroq badiiy asar yoki she’rdan to‘laligicha foydalanish mumkin. Tanlab olingan qo‘s Shimcha materialning ba’zilarini qayta ishslashga, ko‘rib chiqib mavzuga mos kelish hamda kelmasligini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Badiiy parchada geografik ma’lumotlar, tabiat elementlari orasidagi uzviy bog‘lanish ham bo‘lishi kerak. Ushbu usuldan foydalanish va bayon qilish uchun o‘qituvchidan ma’lum darajada ko‘nikma va malaka talab etiladi. Tanlab olingan parcha pala-partish o‘qilsa, mazmuni ochib berilmasa, mavzuga bog‘lagan holda terminlar, tayanch so‘zlarni pedagog tomonidan tushuntirish ishlari amalga oshirilmasa mavzuga tegishli keltirilgan badiiy ijod o‘quvchilarga ta’sir qilmaydi.

Shuning uchun o‘qituvchi izohli o‘qish mahoratiga ega bo‘lishi, o‘qish vaqtida ovozining past-baland bo‘lishiga, talaffuzga, tinish belgilariga, qofiyaga alohida e’tibor berish lozim. O‘z o‘rnida o‘qituvchi intonasiyadan foydalanishi kerak. Bu ta’sirchanlikni oshiradi. O‘qituvchi darsdan oldin o‘qishni mashq qilib olishi kerak. Qaysi usulni qo‘llash materialning xarakteri va mazmuniga qarab belgilanadi. O‘qituvchi foydalanayotgan parchani yoddan o‘qib bersa juda ta’sirli chiqadi. O‘quvchilar o‘qituvchining she’r o‘qish mahoratiga taqlid qila boshlaydi. She’rlarda keltirilgan ma’lumot ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati ham bor.

Barcha turdaggi ta’lim jarayonida bo‘lgani kabi maktab o‘quvchilarining ham mustaqil ishslash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘zi mustaqil ravishda topshiriqlarni ishlab chiqishi kerak. Bu haqida V.A.Korinskaya (1964) o‘quvchilarning bilimga qiziqishi va faolligini rag‘batlantirish, o‘qituvchi tomonidan yangi materialni taqdim etishning muhim xususiyati bo‘lib, unda o‘quvchilar har safar o‘zlarini uchun yangi ma’lumotlarni oladi,— deb ta’kidlaydi.

Hozirgi zamon talabi bilan barcha fanlarni o‘qitish hamda bir fan tarmog‘i bilan boshqa fanlarning o‘zaro bir-birini to‘ldirishi natijasida dars jarayonlarini yanada soddalashtirish, bu orqali mavzularni o‘quvchilarga oson yetkazish bugungi ta’limning muhim shartidir. Shu ma’noda maktab tabiiy geografiya va adabiyot fanlarining o‘zaro Integratsiyasi ta’limga yangicha yondashuv hamda yangi metodika vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.

Masalaning yana bir muhim jihatni borki, el ardog‘ida bo‘lgan, xalqimiz tomonidan tan olingan adabiyot namoyondalari-shoir va yozuvchilarning ijodlaridan foydalanish orqali ham tabiiy geografiyaga tegishli terminlar, mavzular yoki darslarni o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarga tushuntirish mavzuni o‘zlashtirish uchun yanada samarali usul hisoblanadi.

Adabiyot dunyosida o‘z o‘rnini va obro‘-e’tiboriga sazovor shoilardan **Erkin Vohidov**, **Abdulla Oripov**, **Muhammad Yusuf** kabilarni misol keltirish mumkin, ayniqsa ushbu shoirlar tomonidan yozilgan she’rlar va undagi

geografik terminlardan dars jarayonlarida foydalanish har tomonlama qiziqarli hamda samaralidir. Tadqiqot ishining ushbu bo‘limida O‘zbekiston xalq shoirlari, yozuvchilarningqisqacha hayot va ijodiy yo‘llari hamda she’rlaridagi maktab tabiiy geografiya fanibilan bog‘liq ta’limiy yondashuvlar va uning amaliy ahamiyati hususida to‘xtalamiz.

Abdulla Oripovning she’riy misralari ko‘plab fan sohalari, ma’naviyatning yuksalishiga xizmat qilmoqda. Uning ijodida adabiyotdan tashqari, tarix, geografiya, ijtimoiy fanlarning tahliliy yondashuvlar asosidagi aniq mavzularga yo‘naltirilgan she’rlarini ham ko‘rish mumkin. Ularning ayrimlariga to‘xtalib, tahlil qilib o‘tamiz. Jumladan, uning “Menga xushxabar ayt” nomli she’riy to‘plamida keltirilgan. **“Xarita”** she’ri geografik badiiy ijod usuliga yaqqol misol bo‘ladi:

Xaritaga boqsang, ko‘zing oldidan,
Turfa mamlakatlar o‘tar birma-bir.
Qay biri kimgadir boshpana, Vatan,
Qay biri sajdahob bo‘lgan kimgadir.
Mana Italiya, Dante diyori,
Tagor shuhratiga noil Hindiston.

Farzandlar o‘z yurtin nomusi, ori,
Bulbulim bor deydi har qanday bo‘ston.
Garchi zaminda ko‘p har xil xoru xas,
Tog‘larga mengzashar dunyo tomini.
Ayonki, turt-beshta yomonlar emas,
Yaxshilar tanitar yurtning nomini.

Ushbu jumlalar geografiya faniga tegishli bo‘lgan eng muhim ta’lim vositalaridan biri xarita haqida. She’rni tahlil qilish jarayonida xaritaga qaragan o‘quvchi unda turli xil mamlakatlarni ko‘rishi, har bir mamlakat alohida ekani va u yerda turli xil millat vakillari o‘z boshpanasiga, ya’ni makoniga egaligi, mana Italiya, bu yer, mashhur inson Dantening yurti, Tagorning yurti Hindiston ham shu xaritada, har bir yurtning o‘z mashhurlari borligi, dunyo faqat yomon insonlardan iborat emas balki buyuk shaxslarning har biri o‘z yurti nomini yaxshi ma’noda ham dunyoda tanitgani, bu kabi mamlakatlarni esa xaritaga qarab bir zumda tanish va ko‘rish mumkinligini shoirning ushbu she’ridan osongina tushunsh mumkin. Bu nafaqat tabiiy geografiya, balki she’r tahlili davomi o‘quvchilarga qo‘sishimcha ravishda aynan Italiya va Hindistonning geografik o‘rni, iqtiodiyoti, asosiy daromad manbayi kabi ma’lumotlarni ham berish mumkin.

Shoirning ushbu she’ridan 5-sinf tabiiy geografiya boshlang‘ich kursining “Geografik xaritalar” mavzusini o‘tishda foydalanish mumkin. Ushbu mavzuni o‘tishda pedagog kirish qismida ushbu she’rni keltirish orqali darsning dastlabki tushunchalarinio‘quvchilarga yetkazadi.

Muhammad Yusufning 2005-yilda chop etilgan “Saylanma”sida, keltirilgan **“O‘zbekiston”**she’ri haqiqiy tabiiy geografik tilda yozilgan, qiyosiy taqqoslangan, tabiiy ravishda, tushunarli va sodda tilda o‘quvchilarga yetkazilgan geografik she’rdir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu she’rni ham o‘qib, tahlil qilib chiqish orqali bunga yaqqol amin bo‘lasiz.

O, ota makonim, Onajon o‘lkam,
O‘zbekiston, jonim to‘shay soyangga.
Senday mehribon yo‘q, seningdek ko‘rkam
Rimni alishmasman bedapoyangga.

Na gapga ko‘nayin, Na til bilayin,
Ko‘zdan uyqu ochди, dildan halovat.
Uch kunda sog‘insam nima qilayin?
Chala qolar bo‘ldi hamma sayohat.

Bir go‘sha suv bo‘lsa, bir go‘sha qirlar,
Qancha yurtni ko‘rdim, qancha taqdirlar.
Qayga borsam suyab, boshni tik tut deb,
Tog‘laring izimdan ergashib yurar.

Ko‘rdim suluvlarning eng faranglarin,
Yo xudbinman yo bir sodda kasman men:
Parijning eng go‘zal restoranlarin,
Bitta tandiringga alishmasman men.

Bildimki, baridan ulug‘im o‘zing,
Bildimki, yaqinishutuproqmenga.
Bahorda Baxmalda tug‘ilgan qo‘zing
Arab ohusidan azizroq menga.

Sen bilan o‘tgan har kun bayram-bazm
Sensiz bir on qolsam vahmim keladi.
Seni bilganlarga qilaman ta’zim,
Seni bilmaslarga rahmim keladi.

